

## BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPITENTLIGINING MUAMMOLI TA'LIMNI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

Nabiyeva Nasibaxon Nuraliyevna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17069558>

**Anontatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligining muammolari va ta'limdi tashkil etishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

O'qituvchining malakasi, bilim darajasi va pedagogik uslublari ta'lim jarayonida qanday rol o'ynosti ko'rsatilib, ta'lim sifatini oshirish uchun zaruriy choralar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'qituvchi, kasbiy kompetentlik, ta'lim, pedagogika, ta'lim sifatini oshirish.

**Аннотация.** В данной статье анализируются проблемы профессиональной компетентности учителей начальных классов и их значение в организации образования.

Рассматривается роль квалификации учителей, уровня знаний и педагогических методов в образовательном процессе, предлагаются необходимые меры для повышения качества образования.

**Ключевые слова:** начальная школа, учитель, профессиональная компетентность, образование, педагогика, повышение качества образования.

**Annotation.** This article analyzes the issues related to the professional competencies of primary school teachers and their significance in organizing education. It highlights the role of teachers' qualifications, knowledge levels, and pedagogical methods in the educational process, proposing necessary measures to improve the quality of education.

**Keywords:** primary school, teacher, professional competence, education, pedagogy, improving education quality.

Bugungi ta'lim tizimi o'zgaruvchan va rivojlanayotgan dunyoga moslashish jarayonida yangi metodlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ta'limdi samarali tashkil etish va o'quvchilarda haqiqiy bilimni shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Ta’lim tizimiga boshqaruvining yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni asosida ko‘p sonli o'qituvchilar jamoalari oldiga har tomonlama bilimli, dunyoqarashi keng raqobatbardosh, Vatan ravnaqi uchun hormay-tolmay xizmat qila oladigan, buyuk Vatan yo‘lida o‘z jonini ayamaydigan yoshlarni tarbiyalashdek mas’uliyatlari talabni qo‘ydi.[1]

Bunga erishish uchun o'quvchilarni uzluksiz ta'lim bosqichlarida turli sohalar bo‘yicha egallagan bilimlarini kundalik hayotda amaliy qo'llashga o'rgatish orqali ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish kerak bo'ladi. Ushbu talablar avvalo boshlang'ich sinf o'qituvchisida to'la mujassam bo'lishi lozim. Bu o'qituvchida kasbiy komponentlikni shakllantirish vazifasini o'rtaqa qo'yadi. Komponent yondashuv oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqeilik sanaladi.

Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy elementi "bilim-ko'nikma-malaka"ni oltita birlik- "bilim-ko'nikma-malaka-amaliy faoliyat tajribasi-kompetensiya-kompetentlik" tarzida tahlil qilish talab etiladi.[2]

Shu nuqtai nazardan, muammoli ta'lim metodlari (problem-based learning, PBL) o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va mustaqil ishlash kabi muhim ko'nikmalarini rivojlantirishda alohida o'rinni tutadi. Bu metod maktab ta'limini nafaqat ilmiy jihatdan, balki shaxsiy va ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tezisda muammoli ta'lim metodlarining mohiyati, afzalliklari va maktab ta'limiga qo'shayotgan hissasi ko'rib chiqiladi.

I. Muammoli ta'lim metodlari: 1. Tushuncha va mohiyati: Muammoli ta'lim metodlari o'quvchilarga aniq va real hayotdagi muammolarni hal qilishni o'rgatadi. Bu usulda o'quvchilar amaliyotda qanday bilim va ko'nikmalarini qo'llashlarini o'rganadilar. Bunday yondashuvda o'quvchi faqat o'zi uchun bilim olish bilan cheklanmay, balki jamoaviy ishda muvaffaqiyatga erishish, muammoning turli tomonlarini ko'rib chiqish va eng yaxshi yechimni topishga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchilarga muammo taqdim etadi va ularni yechishga yordam beradi, ammalarga to'g'ridanto'g'ri yechimni bermaydi.[1]

2. Muammoli ta'limning asosiy xususiyatlari: o Muammolarni tanlash va taqdim etish:

O'quvchilarga murakkab, hayotiy va haqiqiy muammolarni taqdim etish. Bular o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarini ham oshirish imkonini beradi. o Jamoaviy ishlash: O'quvchilar guruhlarda ishlashadi, bir-birlarining fikrlarini tinglashadi, o'z nuqtai nazarlarini ifodalashadi va jamoaviy qarorlar qabul qilishadi. o Mustaqil va faol o'qish:

O'quvchilar o'zlarini mustaqil ravishda mavzuni o'rganib, yechimlarni topish uchun kerakli ma'lumotlarni izlashadi. o Refleksiya: O'quvchilar o'z faoliyatlarini va o'rganish jarayonini tahlil qilib, o'zlarini va guruhni rivojlantirish uchun qanday strategiyalarni qo'llashlari mumkinligini aniqlashadi.[2]

II. Muammoli ta'lim metodlarining maktab ta'limini rivojlantirishdagi ahamiyati: 1.

Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish: Muammoli ta'lim o'quvchilarni faqat faktlarni yodlash bilan cheklanmasdan, ularni tahlil qilish, baholash va tanqidiy fikr yuritishga undaydi. O'quvchilar mavjud muammolarni yechish jarayonida turli nuqtai nazarlarini o'rganadilar va har bir qarorni puxta o'ylab ko'radilar. Bu esa ularning fikrlash qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.[5]

2. Mustaqil o'rganish va o'zini rivojlantirish: Muammoli ta'lim metodlari o'quvchilarda mustaqil o'qish va o'zini rivojlantirish mahoratini shakllantiradi. O'quvchi o'z bilimi va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash, yechim izlashda o'z fikrini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa uning bilimini faqat passiv ravishda olishdan ko'ra, faol va tajribaga asoslangan tarzda egallahsga olib keladi. [5]

3. Jamoaviy ishlash va kommunikatsiya ko'nikmalarini oshirish: Muammoli ta'limda o'quvchilar guruhlari shaklida ishlashadi, bu esa ularning jamoada samarali ishlash, fikrlarni birlashtirish, konstruktiv munozara olib borish va o'zaro hurmatni o'rnatish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro fikr almashish, yangi g'oyalar va yechimlarni topishda hamkorlik qilishadi.[5]

4. Motivatsiyani oshirish: O'quvchilar uchun muammo bilan ishslash, ularga nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtirish imkonini beradi, balki o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini ham oshiradi. Muammoni hal qilishda o'quvchilarning kreativligi va ijodiy yondashuvi rag'batlantiriladi, bu esa ularning motivatsiyasini yanada kuchaytiradi.

III. Muammoli ta'lismetodlarining afzalliklari: 1. O'quvchilarda chuqur bilim hosil qilish: Muammoli ta'lismusulida o'quvchi mavzu bo'yicha faqat nazariy bilimni emas, balki amaliy bilimlarni ham egallaydi. O'quvchi muammoni hal qilishda bilimlarini real vaziyatga qo'llaydi, bu esa uning bilimiga chuqur tushuncha beradi. 2. Kreativlik va innovatsion yondashuvni rivojlantirish: Muammoli ta'lism o'quvchilarni yangicha fikrlashga, innovatsion yondashuvlar topishga va muammolarni original tarzda yechishga undaydi. Bunday yondashuv o'quvchilarni oddiy yechimlardan ko'ra, kompleks va zamonaviy yechimlar izlashga majbur qiladi. 3. Kognitiv va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish: Muammoli ta'lismetodlari o'quvchilarni nafaqat bilim bilan, balki ijtimoiy ko'nikmalar bilan ham ta'minlaydi. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarning kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

IV. Muammoli ta'lismetodlarini muktab ta'lism tizimiga integratsiya qilish: 1. Innovatsion ta'lismetodlarining ahamiyati: Muktab ta'limidinnovatsionmetodlarni,xususan,muammoli ta'lismni qo'llash o'quvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bu metod muktab tizimining yangilanishiga va global ta'lism standartlariga moslashishiga yordam beradi.

2. Muammoli ta'lismetodlarini amaliyatga tatbiq etish: Muammoli ta'lismi muktablarda keng miqyosda tatbiq etish, o'quvchilarga amaliy mashqlar, laboratoriya ishlari va real hayotdagiyuammolarni yechish imkoniyatlarini beradi. Bu usul o'quvchilarning tajriba orqali o'rganishiga imkon yaratadi, bu esa ularda amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.[4]

Muammoli ta'lismetodlari muktab ta'limi rivojlantirishda ulkan ahamiyatga ega.

Ushbu metod o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativ yondashuv, jamoaviy ish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shuningdek, u o'quvchilarga haqiqiy hayotdagiyuammolarni hal qilishda yordam beradi va kelajakda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi.

Muktab ta'lismining samaradorligini oshirish va o'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun muammoli ta'lismetodlarini keng qo'llash zarur. N.V.Kuzimina, A.K.Markova, E.F.Zeer, V.A.Slastenin, T.F.Loshkova o'qituvchining "kasbiy kompetentlik" haqida ko'plab ishlarni amalga oshirganlar, B.A.Nazarova o'zining ilmiy ishida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid, K.Yung, P.Sorokin, F.Znanetskiylarning falsafasida kasbiy kompetentlik tushunchasiga shunday ta'rif berganliklarini ta'kidlaydi: "Bu muhitga o'rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to'g'rilaydi, odamning qiziqishlarini jamlaydi". A.P.Akimova kasbiy kompetentliknishunday ta'riflaydi: "O'z faoliyatida kerak bo'lgan yangiliklarning, bilimlarning qobiliyatlarining yig'indisi va atrof-muhit bilan o'zaro to'g'ri kelishi".

A.K.Markova o'qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatni, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajaga oshirsa, yoshlarni o'qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa bo'ladi. Kompetentlik o'qituvchi o'zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o'z mehnatida qo'llashni bilishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetenligini shakllantirish muammosini o‘rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag‘ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa uzlusiz ta’lim tizimining modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi. R.X.Tugeshev kompetensiya tushunchasini kasbiy mahorat degan tushuncha bilan bir xil ekanligini qayd etsa, E.F.Zeer esa kasbiy kompetensiya va kasbiy qobiliyat oliy darajadagi kasbiy mahoratni ta’minlaydi, degan fikrni olg‘a suradi.[3]

Ko‘pchilik olimlar kasbiy kompetensiya tarkibida umumlashgan shaxsiy sifatlarni har qanday oliy ta’lim muassasini tamomlaganlari uchun o‘ta muhim ekanligini qayd etadilar.

Ijtimoiykompetentlik–ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.Maxsuskompetentlik–kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Shaxsiy kompetentlik–izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.Texnologik kompetentlik–kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalanish.

Ekstremal kompetentlik –favqulotda vaziyatlar(tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.[5]

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ushbu kompetensiyalarni amalga oshirishda quyidagi xususiyatlarni ham o‘zida namoyon qilishi lozim:

1.O‘qituvchi dunyoqarashi keng, hamma voqeа, hodisa ustida erkin fikr yurita olishi zarur.

2.Mustaqil O‘zbekistonimiz o‘qituvchisi birinchi galda o‘zi o‘qitadigan fanni chuqur egallagan bo‘lgandagina o‘quvchilarda umumiylashtirishni oshira oladi va ularda fan-texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila oladi.

3.O‘qituvchi hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har daqiqasidan unumli foydalanishi zarur.

4.O‘qituvchi yaxshi komponentli o‘qituvchi bo‘lishi uchun pedagogika, psixologiyaga qo‘shib, o‘z fanining metodikasini yaxshi bilmog‘i lozim.

5.O‘qituvchining umumiylashtirishni oshirish uchun madaniyati yuqori bo‘lishi bilan birga bu kasb adabiyot va san‘at sohasidagi bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi.

6.O‘qituvchi pedagogik odobiga rioya qilishi kerak. Pedagoglik odobi o‘qituvchilik kasbiiga xos fazilatlardan bo‘lib, u o‘qituvchining bolalar bilan ishlashi jarayonida uning tajribasi, mahoratibilanoshadi.

7.O‘qituvchi pedagogik kompetentligiga va har tomonlama bilimga ega bo‘lishi kerak, chunki unga o‘quvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin.

8.Zamon talablaridan kelib chiqib innovatsion g‘oyalari bilan qurollangan bo‘lishi kerak.

Ayni shu kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun o‘qituvchidan doimiy tarzda o‘z ustida ishslash o‘zini-o‘zi tahlil qilish va rivojlantirish talab etiladi.

Bunday qobiliyatlarning shakllanganligi o‘qituvchining o‘zini-o‘zi nazorat qilishida, o‘z qadr-qimmatinibilishida va pedagogik individual rivojlanish xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni
2. M.X. To‘xtaxodjayevaning umumiylar tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
3. O‘.J. To‘ldoshev. Umumiylar pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. - 376 bet.
4. R.Ishmuhamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
5. B.X. Xodjayev. Umumiylar pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
6. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiylar pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.
7. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Iqtisodmoliya, 2011 y. -420 bet.
8. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Noshir” 2011 y. -140 bet.
9. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O‘quv qo‘llanma. O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011y. -128 bet.